

## IXTISOSLASHTIRILGAN MUSIQA MAKTABLARIDA JO'RNAVOZLIK SINFINI OLIB BORISH VA JO'RNAVOZLIK KO'NIKMALARI USTIDA ISHLASH.

**Radjibayeva Dilnoza Baxadirovna**

*R.Glier nomidagi Respublika Ixtisoslashtirilgan Musiqa maktabi "Maxsus fortepiano" bo'limi oliy toifali o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Pedagogikaning har bir yo'nalishi bo'yicha o'ziga xos tomonlari, muammolari, qiyinchiliklari mavjud. Har bir o'qituvchi pedagog, o'quvchilar bilan ishlash jarayonida ularni to'laqonli bartaraf etish ustida ishlaydi. Bunda o'z tajribasiga tayangan holda har bir o'quvchining individual qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirishga harakat qiladi. Ushbu maqola jo'rnavozlik sinfida ish jarayonining o'ziga xos tamoyillarini yoritishga qaratilgan.*

**Kalit so'zlar:** *jo'rnavoz, jo'rnavozlik sinfi, yakkaxon, ansambl, faktura, katta sahna, ijro.*

Yosh ijrochi musiqachilarni tarbiyalashda jo'rnavozlik sinfining ahamiyati juda katta. Mazkur sinf, o'quvchilarni aynan jo'rnavoz sifatida bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirib, amaliy jihatdan ularni rivojlantirishga qaratilgan.

Jo'rnavozlik sinfi rivojlanishi tarixiga nazar solsak, uning kelib chiqish ildizlari Evropada 19-asrning oxirlaridan shakllanib boshlangan va 20-asrning birinchi yarmida alohida mustaqil dars mashg'uloti sifatida o'quv dasturlariga kiritilgan.

O'zbekistonda Toshkent Davlat Konservatoriyasi tarkibida "Konsertmeysterlik mahorati" kafedrasini 1972 yil tashkil topgan. Ayni shu damdan jo'rnavozlik sinflari ixtisoslashtirilgan musiqa maktablarida ham o'quv dasturiga kiritilgan [1].

Jo'rnavozlik sinfining asosiy maqsadi pianist-o'quvchilarni kelajakda o'z faoliyatlarini Bolalar musiqa va san'at maktablarida va turli xil musiqa to'garaklarida, aynan, jo'rnavoz sifatida olib borishga tayyorlashdir.

Barcha yo'nalishdagi yakkaxonlar, ya'ni, xoh u vokalist yakkaxon xonanda bo'lsin, xoh u turli xil cholg'ularda ijrochi bo'lsin, uning ijrosi jo'rnavozsiz to'laqonli bo'lmaydi. Shuni aytib o'tish kerakki, o'z vazifalarini chuqur anglaydigan va bajaradigan jo'rnavoz, sahnada ijro vaqtida duch keladigan turli xil noxush vaziyatlarni, ijroning umumiy xolatiga putur yetkazmagan xolda uddalaydi. Buning uchun, albatta, ma'lum darajada bilim va ko'nikmalarga, tajribaga ega bo'lish kerak. Aynan shu maqsadlarda Ixtisoslashtirilgan musiqa maktablarida 8-sinfdan o'quv dasturiga jo'rnavozlik sinfi kiritilgan va dars mashg'ulotlari yakkaxon xonanda bilan birgalikda olib boriladi.





Yakkaxonlar partiyasini o'rganish, ularning ijrosidagi barcha ijro nuanslari, ya'ni, temp, ritm xilma-xilligi, intonatsiya sofligi, ijro dinamikasi, jadalligi, asar xarakteri, badiiy rang-barangligi, kulminatsiya avjlarining boshlanish onlarini bilish va ularni maromiga yetkazish, shakl va faktura tushunchalari kabi detallar, jo'rnavoz bilan birga o'rganilib, mukammallik darajasi ustida ishlanadi va sahnada ijro etish bosqichigacha olib chiqiladi[2].

Aytish joizki, jo'rnavoz o'z faoliyatida ijodiy pedagogik, psixologik tamoyillarni qamrab oladi va bu tamoyillarning barchasi nafaqat o'quv jarayonida, balki, konsert va turli xil konkurs, festivallarda, ya'ni, katta sahnada ijro etishda o'z aksini topadi.

Zamonaviy hozirgi zamonda yetuk jo'rnavozni tarbiyalash o'quv jarayonining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Jo'rnavozlik sinfida dars mashg'ulotlarini olib borish bosqichlarini to'g'ri shakllantirish juda muhim pedagogik vazifadir. Avvalo, o'quvchilar uchun odatiy ikki qatorli musiqa matnidan uch qatorli musiqa matniga o'tish va bir vaqtning o'zida yakkaxon partiyasini kuzatib, eshitib va yakkaxonning nafas olishlariga e'tibor berib o'z partiyasini ijro etishga odatlanish juda muhimdir[3].

Jo'rnavozlik sinfida ovoz va fortepiano uchun yozilgan qo'shiq, romans va operalardan ariyalarni o'quvchilar bilan o'rganish jarayonida, ilk darslarda yakkaxon partiyasi o'qituvchi tomonidan chalinadi va vokalist yakkaxonni odatiy nafas oladigan joylari, frazalarini tuzilishi, avj pardalarida yakkaxonga qarab ijro etilishi kerak bo'lgan jumlar haqida tushunchalar berilib, asar mukammal ansamblda ijro etilishiga tayyorlanadi. Birinchi darslardayoq, yakkaxonni eshitish, uning harakati, frazalarini tuzilishiga e'tibor juda muhim ekanligini o'quvchi ilg'ashi darkor. Umulashtirib quyidagilarga e'tiborni qaratamiz:

- uch qatorli musiqa matniga ko'nikish
- yakkaxon partiyasini, so'z matnini mukammal bilish
- aynan so'z matni, asarning badiiy obrazlarini yoritib beradi
- yakkaxon nafas olish jarayoniga e'tiborni qaratish
- ansamblda gorizontallik va vertikalikka e'tibor berish
- faktura tushunchasini akkompanement nuqtai nazaridan chuqurroq o'rganish
- o'ng pedaldan to'g'ri foydalanish
- musiqiy atamalarga juda e'tiborli bo'lish
- ovoz va fortepiano uchun yozilgan asarlarni notadan o'qish ko'nikmasini rivojlantirish
- opera klavirlari bilan ishlashni o'rganish, orkestr cholg'ulari tembrlarini fortepianoda ifodalash, bunda shtrixlar ijrosiga e'tiborli bo'lish
- simfonik orkestr tarkibini o'rganish, orkestr cholg'ulari spetsifikasini o'rganish



-eng oddiy fortepiano fakturasini ifodali ijro etish mezonini bu – yakkaxon partiyasi frazalariga e'tibor berish, kulminatsion onlari bo'lgan frazalarga urg'u berish va musiqiy ohang rivojlanish harakatiga erishish

-vokal ovozlari klassifikatsiyasini o'rganish, ovozlarning diapozoni, tessiturasini haqida tushunchaga ega bo'lish kabi tamoyillarga e'tiborni qaratish lozim.

Bu borada faktura tushunchasiga alohida to'xtalib o'tamiz. Akkompaniment partiyasida odatiy bo'lgan faktura turlari bilan tanishish, ularning o'ziga xos tomonlarini yoritish va o'quvchilarning nazariy bilimlarini amalda qo'llash darkorligini o'quvchilarga yoritish maqsadga muvofiq. Fakturada akkordlarni uchrashi, bunda ularning funktsiyalarini aniqlab olish va ularni bir ko'rishdayoq, qiynalmasdan chalishga, notani varaqdan o'qish jarayonida buni tez ilg'ashga o'quvchilarni e'tiborini qaratish lozim[4].

Akkordli tuzilishli yoki arpedjiosimon tuzilishga ega bo'lgan fakturada o'ng pedaldan to'g'ri foydalanish, bunda fortepiano va yakkaxon o'rtasidagi jarangdorlik mutanosibligiga erishish juda muhimdir. Oddiy fakturadan murakkab fakturaga o'tishda, yakkaxon har doim birinchi darajada ekanini unutmaslik kerak. Chunki, fortepiano partiyasi qanchalik murakkab bo'lmasin, ansambl' jarayonida har doim yakkaxon birinchi o'rinda bo'lishi kerak.


Albatta, bularning hammasiga birdaniga erishib bo'lmaydi. O'quv yilining har bir yarimyillik rejalarida asosida tanlangan ijro dasturlari ustida ishlanar ekan, yuqorida aytilgan tamoyillar ustida bosqichma-bosqich ish olib boriladi. Hisobot konsertlarda o'quvchilar jo'rnavoz sifatida ishtirok etib, o'z sahna tajribalarini orttirishadi.

Jo'rnavozlik yo'nalishi bo'yicha tajribaga ega bo'lgan o'qituvchi, har bir o'quvchining iste'dodi, qobiliyatlarini inobatga olgan holda individual dars jarayonlarini olib boradi va jo'rnavozlik ko'nikmalarini o'zlashtirishni bosqichma bosqich, oddiydan murakkab tomon metodikasiga tayangan holda amalga oshiradi. Ijro dasturini tanlashda har bir o'quvchining qobiliyatlaridan, iqtidori va qiziqishlari, psixologik holatlaridan kelib chiqqan holda, individual tarzda o'qituvchi tomonidan tanladi. Jo'rnavozlik ko'nikmalarini o'zlashtirishni, aynan, yakkaxon vokalist bilan boshlagan o'quvchi, kelajakda turli xil cholg'u ijrochilari bilan ishlash jarayoniga tayyor bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. YE.M.Shenderovich "О преодолении пианистических трудностей в клавирах". Советы аккомпаниатора. L.,1972
2. Dj.Mur "Певец и аккомпаниатор" Moskva 1987
3. I.K.Ivanova Базовые принципы работы в концертмейстерском классе. Историческая и социально-образовательная мысль. 2014. № 2 (24)





4. V.V.Kalitskiy История формирования учебной дисциплины «концертмейстерский класс» 2017/2, Музыкальное исполнительство и образование, 100-108 стр.

